

ANDIJON VILOYATINING SUV RESURSLARI

Akmalova Feruzaxon Furqat qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Xojimurodov Rustambek Ulug‘bek o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Axmakov Qosimjon Furqat o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Andijonning daryolari, soylari, kanallari hamda mamlakatimizning suv manbalari kabi tabiiy boyliklar bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, iqlimi quruq, sug‘orma dehqonchilikka asoslangan o‘lkamiz uchun daryolarning sug‘orishdagi ahamiyati naqadar kattaligi haqida ilmiy ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Andijon viloyati, suv ombori, yog‘in mavsumi, suvdan foydalanish, namlik koefitsiyenti, daryolarning to‘yinishi, yaxob suvining ahamiyati

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены сведения о природных богатствах Андижана, таких как реки, ручьи, каналы и водные источники нашей страны, а также научная информация о значении рек в орошении для нашей страны, имеющей сухой климат и на основе орошаемого земледелия информация предоставлена.

Ключевые слова: Андижанская область, водохранилище, сезон дождей, водопользование, коэффициент влажности, насыщенность рек, значение речной воды.

ANNOTATION

This article provides information on the natural resources of Andijan, such as rivers, streams, canals, and water sources of our country. Also, scientific information about the importance of rivers in irrigation for our country, which has a dry climate and is based on irrigated agriculture. information has been provided.

Key words: Andijan region, water reservoir, rainy season, water use, moisture coefficient, saturation of rivers, importance of river water

Kirish

Daryolarning ahamiyati va suvni toza saqlash.

Andijon viloyati hududidan oqib o‘tadigan suv havzalari, jumladan, daryolar, soylar, kanallar, anhorlar va ariqlar viloyatimiz qishloq xo‘jaligida foydalilaniladigan, sug‘orib dehqonchilik qiladigan yerlarni sug‘orishda, yuzlab sanoat korxonalarini suv bilan ta’minlashda, shahar va qishloqlarimizdagi ijtimoiy sohalarni hamda viloyatning 2854,3 ming kishi aholisining suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyatga egadir.

Viloyatda jami 430,5 ming hektar yer qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida band bo‘lib, shundan 272,4 ming hektar maydonda sug‘orib dehqonchilik qiladi. Bu maydonlarni sug‘orish uchun jami 158,4 mln.m³ suv sarflanadi. Qishloq xo‘jaligi uchun olinayotgan suvning 80% sug‘orish uchun sarflansa, qolgan 20% tuproq sho‘rini yuvishga ishlataladi. Viloyatning Ulug‘nor, Bo‘z hamda Baliqchi tumanlarida sho‘r va sho‘rxok tuproqlar mavjud bo‘lib, bu tuproqlarni yaxob suvi berish orqali sho‘rlarini yuvib, undan so‘ng ekin ekiladi. Sug‘orishga sarflanayotgan suvning 20-25 % zovur drenaj orqali tabiiy holda sizib qaytarma suvlar sifatida zaharli kimyoviy moddalar va mineral o‘g‘itlar bilan ifloslanib, tabiiy havzalarga qo‘shiladi yoki sug‘oriladigan hududlardan tashqariga chiqarib tashlanadi.

Viloyatimizda mavjud daryo va kanallar sanoat tarmoqlarini va maishiy-kommunal xo‘jaligini suv bilan ta’minlaydi. Bu sohalarga daryo va kanallarni 2-

2,5% suvi sarflanadi. Shu sarflangan suvning 85% ifloslangan yoki qisman tozalangan holda yana tabiiy o‘zanlarga qo‘shilib ketadi.

Daryolarning energetik ahamiyati ham katta. Qoradaryoning Andijon suv omboridan chiqish joyida qurilgan gidroelektrostansiya viloyatning elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojini ma’lum darajada qondiradi. Viloyatda bir yilda, jumladan, 2013 - yilda, 569,8 mln kvt/soat elektr energiya ishlab chiqargan bo‘lib, bu energiya asosan sanoat korxonalarini va aholini energiya bilan ta’minlashga sarflanadi.

Viloyatdan oqib o‘tadigan daryolarning yana baliq ovlashda, rekratsion maqsadlarda ham ahamiyati katta. Daryo suvlarida laqqa, oq amur, sazan kabi baliq turlari mavjud bo‘lib, bu baliqlar sanoat ahamiyatiga ega bo‘lmasa-da, ma’lum ma’noda, aholini baliq mahsulotlari bilan ta’minlaydi. Undan tashqari daryoda yashaydigan boshqa mavjudotlar ham suvning qayta tiklanishida o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. Yuqorida qayd qilinganidek, daryo trassalari va vodiylarida aholining dam olish maskanlari tashkil etilgan. Bu maskanlar o‘zlarining mikroiqlimi bilan jazirama yoz oylarida aholini dam olish va salomatliklarini tiklashga xizmat qiladi.

So‘nggi vaqtarda viloyatimizdagi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida zovur – drenaj suvlari miqdorining ko‘payishi, ishlab chiqarish korxonalaridan, maishiy tarmoqlaridan, transport va sog‘lomlashtirish tashkilotlardan, ayniqsa, aholi xo‘jaliklaridan chiqayotgan iflos-oqova suvlar miqdorining ortib ketishi, ularning daryo va kanallarga oqizilishi tufayli katta suv havzalari suvining tabiiy holati buzilib, ifloslanib bormoqda bu esa o‘z navbatida suvdan foydalanish muammolarini keltirib chiqarmoqda.

Daryo suvlarining ifloslanishi oqibatida suvning tabiiy holati buzilib, yashil suv o‘tlarining, baliqlarning va boshqa suvda yashaydigan jonivorlarning kamayib ketilishiga, sug‘oriladigan yerlardagi ekinlarning yaxshi rivojlanishiga, ularning hosildorligiga va oqibatda kishilar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Daryolar, soylar, kanal va anhorlar ham hududning katta boyligi hisoblanadi. Shuning uchun bu suv havzalari suvlarini toza saqlash, ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Suvni toza saqlash uchun eng avvalo ekin dalalaridan

chiqayotgan zovur-drenaj suvlarini tabiiy suv havzalariga oqizmaslik, zovur-drenaj suvlarini ma'lum havzaga yig'ib, uni zararsizlantirib keyin toza suvlarga qo'shish maqsadga muvofiq.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini kimyoviy zaharlar bilan kamroq dorilab, qishloq xo'jaligi zararkunundalariga biologik usul bilan qarshi kurashishni joriy qilish hamda zavod va fabrikalardan, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalaridan chiqayotgan iflos-oqova suvlarni suz tozalash qurilmalarida tozalab, undan so'ng suv havzalariga tashlashga erishish zarur.

Andijon viloyatida tabiiy ko'llar yo'q, ammo Ulug'nor tumani yangi Baliqchi qishlog'i hududida sun'iy ko'llar barpo qilingan bo'lib, bu ko'lning maqsadi baliqchilik sohasini rivojlantirishdan iborat. Ko'lda sazan, laqqa, oq amur, xon baliq, ilon bosh, marinka kabi baliq turlarini uchratish mumkin. U yerda baliqchilikni rivojlantirish bilan bir qatorda suv havzasida yashaydigan boshqa tirik organizmlarning hamda qushlarning makon topishi uchun sharoitlar yaratilgan bo'lib, havzadagi qamishzorlar orasida laylak, yovvoyi o'rdak va boshqa ko'pgina parandalar yashashi uchun tabiiy sharoit yaratilgan.

Andijon suv ombori Farg'ona vodiysining janubi-sharqida Oloy, shimoli-sharqida Farg'ona tog' tizmalarining 4500 metr balandliklaridan boshlanuvchi Qoshqa-suv, Tor, Qora-G'ulja, Qurshob daryolarining suvlarini o'zida to'playdi.

Andijon suv ombori Qoradaryo o'zanida qurilgan yirik gidrotexnika inshooti bo'lib ko'p yillik rejimda daryo suvini tartibga soladi, irrigatsiya va energetika maqsadlarida bunyod etilgan. Suv omborining qurilishi 1982-yilda nihoyasiga yetkazilgan bo'lib, uning balandligi 121 metr, uzunligi 1040 metrga teng bo'lgan betonli katta kontrforsli to'g'ondan iborat qurilma. Suv omborining suv sig'imi 1.9 mlrd m³ ni tashkil qiladi. Gidrouzel tarkibiga to'g'on, suv o'tkazuvchi inshootlar va GES kiradi. Suv omborida suv o'tkazuvchi inshootlar favqulodda toshqinda 1700 m³/s gacha suv o'tkazishga va umumiyligi suv sarfi 230 m³/s bo'lgan irrigatsiya kanallariga oqizish quvvatiga ega. GES kanallarga tushayotgan suv hisobiga ishlaydi, 192 m³/s suv sarfiga mo'ljallangan, energiya ishlab chiqarish quvvati 140 MVt.ga teng. Andijon suv

ombori suvi Farg'ona vodiysidagi 273 ming getktarga yaqin maydondagi ekinzorlarning suv ta'minotini yaxshilaydi, qo'shimcha 35 ming hektar yerni sug'orish imkoniyatini beradi.

Andijon suv omboridan Qoradaryo, Andijonsoy, Shahrixonsoy suv oladi va ular ham, o'z navbatida, bir nechta o'zanlarga bo'linib, Andijon viloyatining irrigatsiya turini tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz* – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. *Ergashev A. Umumiy ekologiya*. – Toshkent: O'zbekiston, 2003.
3. *To'xtaev A. S. Ekologiya*. - Toshkent: O'qituvchi, 2001.
4. *To'xtaev A. S., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish*. Toshkent: O'qituvchi, 1964.